

Talabalar uchun "Qori Niyoziy" olimpiadasi!

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti (<https://t.me/milliy matematikauz>), "Akademik Qori Niyoziy merosi" ilmiy-metodik markazi va KHISO olimpiada maktabi hamkorligida barcha oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat talabalari uchun matematika fanidan ikki bosqichli "Qori Niyoziy" olimpiadasi o'tkaziladi.

Olimpiadaga @khiso_uz_bot orqali ro'yxatdan o'tish shart!

14-noyabr kuni khiso.uz saytida soat 12:00 dan 23:00 ga qadar olimpiadaning onlayn saralash bosqichi o'tkaziladi.

Saralashda eng yuqori natija ko'rsatgan 20 nafar talaba oflayn tarzda o'tadigan final bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi. Final bosqichi g'oliblari pul mukofotlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.